

**MA'RIFATPARVAR JADIDIMIZ MUNAVVAR QORI
ABDURASHIDXONOVNING HAYOTI VA IJODI YOSHLARIMIZGA
IBRATLI AHAMIYATI.**

Rajabova Afruza Saloxiddinovna

Navoiy shahridagi 1-AFChO'IM 8-sinf o'quvchisi

Ilmiy rahbar: prof. Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna

Annotatsiya: Ma'rifatparvar jadidimiz Munavvar qori Abdurashidxonov hayoti davomida ko'p qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramasdan, bor bilimlarini o'quvchilariga berishdan tuxtamagan va u amalga oshirgan ishlari mubolag'asiz yoshlar uchun ibratli namunalari haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlari: jadid maktablari, jadidlar, ma'rifatparvar, kitob, diniy, dunyoqarash, bilim, odob, axloq, ilm, ma'naviyat.

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi Darxon mahallasidagi elga taniqli oilada dunyoga kelgan. Uning padari buzrukvorlari ya'ni uning otasi, mudarrisi Abdurashidxon Sotiboldixon olimxon o'g'li va vodidayi mehribon Xosiyatxon o'g'liga Munavvar, ya'ni nurli va nur bilan yo'g'rilgan degan ma'nosi anglatuvchi ism qo'ydilar. Munavvar qori Abdurashidxonov kichigligidan diniy, dunyoviy va ijtimoiy-siyosiy mazmundagi kitoblarni, jurnal va gazetalarni sevib o'qigan. Va u turkiy tillardan tashqari rus va fors tillarini ham yaxshi bilgan. Albatta uning qiziqishlari shunchaki kelib qolmagan, bunda uning ota-onasining o'rnini juda katta bo'lgan. Chunki, uning otasi Abdurashidxon aytib o'tilganidek mudarris bo'lib faoliyat olib borgan va u o'z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o'quvchiga dars bergan. Uning onasi Xosiyatxon aya esa o'sha hovlida xotin-qizlarga bilim bergan. Va shu bilan Munavvar qori har tomonlama bilimlar qurshovida bo'lgan. O'zidan katta A'zamxon va Musulmonxon ismli akalari bo'lgan. Ming bir afsuski, Munavvar qori 7 yoshga kirganida uning otasi bu dunyoni tark etadi. Uning onasiga 3 farzandning yeb-ichishi-yu kiyinishlari, ta'lim-tarbiyasi-yu hayotda o'z o'rnini topishi uning zimmasiga tushadi.

Xosiyatxon aya kunduzi xotin-qizlarga dars bergan. Kechalari esa qo'lop-paypoq to'qib chiqqan, kenja o'g'li ya'ni Munavvar qori boshqalaridan ko'ra unga yaqin yurgan, og'irini yengil qilish istagida yongani uchun voliday mehribonining yonida yarim kechagacha o'tirib ishini kuzatar, bora-bora u ham qo'liga uchli ilmoqli ignani ushlab qalin iplarda mustaqil paypoq to'qish sirlarini o'zlashtirib olgan, bu yumushidan sira uyalmagan. Bu narsa biz yoshlarga Munavvar qori ham yaxshi o'qib ham onasiga amaliy yordam berganligini namoyon qilmoqda.

O'qigan dargohlari: Munavvar qori Abdurashidxonov boshlang'ich ta'limni o'z onasi Xosiyatxon ayadan olgan. Undan so'ng, dastlab Toshkentda Yunusxon

madradasida o‘qiydi. Keyin esa 10 yoshlarida Buxoroga borib, u yerdagi madrasalardan birida besh yil hadis va fiqh ilmi tahsiliga beriladi. Buxorodan Toshkentga qaytgach, “Darhon” mahallasi masjidida imomlik qiladi.

Munavvat qori XIX asrning 90-yillarida qirumda joriy etilgan “usuli jadid”-“usuli savtiya” (tovush usuli)ga asoslangan yangi maktab ochishga bel bog‘laydi. Ammo, unga chor ma’muriyati, rus ziyoli missionerlari, mahalliy musulmon mutaassiblari qarshilik qiladi. Juda katta mehnat va turli ta’qiblarga bardosh berish evaziga Munavvar qori 23 yoshida o‘z uyida 1901-yil Turkistonda birinchilar qatorida jadid maktabini ochishga muvaffaq bo‘ladi.

Bu “Usuli savtiya” maktablarida o‘quvchilar o‘qish-yozishni olti oyda o‘rganib to‘la savodli bo‘lganlar, lekin usuli qadim-eski an’anaviy maktablarda savod chiqarish uchun besh yil sarflangan. Va shunda Munavvar qori tomonidan ochilgan to‘rt yillik “Savtiya” ya’ni tovush usulli maktabi eski maktablarga mutloq raqobatchi bo‘lgan yangi jadid maktabi yuzaga keladi. Munavvar qori Maktabida dunyoviy va diniy bilimlarni o‘zaro uyg‘unlikda, yonma-yon o‘qitilgan. Ikkala yo‘nalishga ham bir xil urg‘u berilgan. Munavvar qori maktabidan namuna olgan nafaqat Toshkent, balki butun Turkistonda ham birin-ketin ochilib, tezlik bilan yoyila boshlagan.

Munavvar qori yanada oldinga qadam tashlab birinchilardan bo‘lib “Rushdiya” ikki yillik jadid maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoviy o‘rta maxsus ta’limga asos solgan. Bu maktab shunchalik tez rivojlanib ketdiki, hatto usha amktab “Lenin maktabi”, “Muxtoriyat maktabi” deb nomlandi. Bu maktabda rus tili ham o‘rgatilgan, lekin general-gubernatorligidan rus tilini o‘rgatish uchun ruxsat olish juda ko‘p qiyinchilik tug‘dirgan. Bunga qaramasdan Munavvar o‘z maqsadiga erishgan. Shunda “Rushdiya” maktabida rus tili bilan birgalikda, diniy va dunyoviy ta’lim, ya’ni ijtimoiy-gumanitar va tabiiy bilimlar chuqur o‘qitilgan.

Hozirda darsliklar o‘rta maxsus maktablarga davlat tomonidan beriladi va bu darsliklar hammualliflikda yoziladi, lekin Munavvar qori Abdurashidxonovning jadid maktablari uchun dastur va darsliklarni o‘zi bir necha yillar davomida ishlab chiqqan va o‘quvchilarning qo‘liga tutqazgan. Ular:

- 1) “Adibi avval”- Alifbo darsligi (1907)
- 2) “Adibiy soniy” – O‘qish kitobi (1907)
- 3) “Yer yuzi” – 3-4 sinf uchun Geografiya darsligi (1908)
- 4) “Havojiy diniy” – Til saboqari darsliki (1925)
- 5) “Tajvidi” – Qur’oni karimni o‘qish qoidalari
- 6) “Sabzazor” – Adabiy to‘plami.

Shunda biz Munavvar qori Abdurashidxonov uch bosqichli milliy ta’lim tizimiga bevosita asos solgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Usha 3 bosqichning birinchi bosqichi to’rt yillik boshlang’ich, ikkinchisi esa ikki yillik o’rta maxsus “Rushdiya” maktablarini tashkil etish bilan birga ularning bitiruv imtihonlarini tantanavor ravishda amalga oshirishgan. Bunga o’quvchilarning ota-onalarini, ma’rifatparvar saxiy boylarni, din peshvolarini shunigdek, taniqli jadid ziyoli va shoirlarni rasman taklif etgan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu imtihonlarda o’zini a’lo darajada namoyon etgan qobiliyatli yoshlarga muruvvatli boylar pul mablag’lari bilan rag’batlantirishlar ham bo’lgan. Biz shu yerda yaqqol ko’rib turipmizki, Munavvar qori Abdurashidxonov o’quvchilariga bilim bergan va qolgan o’quvchilar yanada yaxshi o’qishligi uchun hozirgi tilda aytilganda motivatsiya bergan. Va shu tariqada bitiruv kechasi tashkil etilgan.

Munavvar qori jadidchilikni hozirgi tushunchadagi tadbirkorlikdan boshladi desak, xato bo’lmaydi. Men bejizga bu mavzuni ochmadim, chunki uning 2 bosqichli maktblari pulli bo’lgan. Va har bir bola uchun ota-onasi o’z imkoniyatiga ko’ra, ixtiyoriy ravishda 50 tiyindan 1,500 so’mgacha to’lov qilishi lozim bo’lgan. Ammo xursandchiligidan 3,000 so’mdan ko’p to’lov qilganlar ham bo’lgan. Shu tariqa u o’zini moddiy taraflama tamirlab borgan.

Maorif taraqqiyotiga qo’shgan boshqa xizmatlari evaziga Munavvar qori mahalliy sovet hukumatining 1923-yil 7-martdagi e’tirof etilgan qaroriga ko’ra, “Maorif qahramoni” unvoniga sazovor bo’lgan.

Munavvar qori va uning qo’l ostidagi maslakdoshlari yoshlarni jadid maktablarida o’qitish baraborida ularni moddiy ta’minlab kelajakda oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar bo’lib yetishishi uchun zamin yaratib bergan. Munavvar qorining sa’y-harakatlari bilan Toshkentda 1909 yilda “Ko’mak”, 1913-yilda “Doril ojizin” xayriya jamiyatlari ochilib, yoshlarni xorijga o’qishga yuborish uchun va boshqa muhtojlarga xayriyalar berilishi mutlaqo yangi tarixiy voqeani boshlab bergan. Uning barcha sa’y-harakatlari o’z yurtida olim-olimlar chiqish istagida amalga oshirilgan.

1921-yili Munavvar qori chaqirib olinib, davalt to’ntarishida aylanib qamoqqa olinadi. Bunga qarshi birlikchilar ko’chada namoyish uyushtirib, uni ozod etilishini talab qiladi. Shu namoyishlardan keyin Munavvar qori Abdurashidxonov ozod qilinadi. Bundan keyin unga partiyaviy taziq va maxfiy kuzatuv kuchayadi. Oxir-oqibat, barcha lavozimlardan haydalib, 1928-1929-yillarda uyda o’tirib qolgach, qo’lqop va paypoq to’qib tirikchilik qilgan. Munavvar qori hayotida har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, to’xtamaslikni, olg’a intilish keragligini yaqqol namunasini biz yoshlarga ibrat tariqasida ko’rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvar jadidimiz Munavvar qori Abdurashidxonov hayoti davomida ko’p qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramasdan, bor bilimlarini

o‘quvchilariga berishdan tuxtamagan va u amalga oshirgan ishlari mubolag‘asiz biz yoshlar uchun ibratli namunadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO‘YXATI:

1. Abbas Said “Munavvar qorining so‘ngi nidosi”. “Yoshlar matbuoti”, 2024-yil.
2. Jadidlar to‘plamidan. Sotimjon Karimov “Munavvar qori Abdurashidxonov”. “Yoshlar matbuot”, 2022-yil.

AUTIZM BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Axrorova Sevinch Abrorovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

sevinchaxrorova0@gmail.com

Ravshanova Zarina Azamat qizi

Oligofrenapedagogika yo‘nalishi talabasi

Anotatsiya. Mazkur maqolada autizimli bolalar bilan ishlashda “FLOOR TIME” texnologiyasi, logopedik o‘yinlar va logoritmika mashg‘ulotlarining ahamiyati tahlil qilingan. Ularning nutq, muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan. Logopedik o‘yinning sensor, rolli, konstruktiv va jamoaviy o‘yin kabi yo‘nalishlari orqali bolalarning sezgirligi, diqqati, so‘z boyligi va ijodkorligi rivojlantirilishi mumkinligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: nutq rivojlanishi, kommunikativ ko‘nikmalar, logopedik yordam, pedagogik yondashuv, individual rivojlantirish, nutq terapiyasi, bolalar psixologiyasi, maxsus ta’lim, kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. В статье анализируется значение технологии «FLOOR TIME», логопедических игр и логоритмических упражнений в работе с детьми с аутизмом. Была продемонстрирована их эффективность в развитии речевых, коммуникативных и социальных навыков. Подчеркивается, что чувствительность, внимание, словарный запас и креативность детей можно развивать с помощью таких направлений логопедической игры, как сенсорные, ролевые, конструктивные и командные игры.